



3-SINFLARDA TABIIY FANLARNI O'QITISHDA O'QUVCHILARNI VIRTUAL MUHITGA OLIB KIRISH.

G'aniyeva Gulhayo Islom qizi

Termiz davlat pedagogika institut

“ Boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10142276>

ANNOTATSIYASI

Bugungi kunda dunyo miqyosida tabiiy fanlarni virtual muhitga olib kirish multimedia vositalari asosida o'qitishni takomillashtirish, xalqaro baholash dasturlari darsda o'quvchilarni tabiiy-ilmii savodxonligini oshirish sohasida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchaymoqda. Bu borada samaradorlikka erishish hamda multimedia vositalarining rolini va ta'sirini oshirish, mavjud muammolarni konseptual o'rganish va tahlil qilish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Kalit so'zlar: “tabiat”, “tabiat va biz”, “mediata'lim”, “metodlar”, “ta'lim texnologiyalari”, “multimedia vositalari”, “zamonaviy dasturlar”, VR qurilmala

Mediata'lim asosida ishlab chiqilgan elektron o'quv qo'llanmadan foydalanib tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi- uzluksiz ta'lim tizimida, shuningdek, ta'lim muassasasidan tashqarida, hamda mustaqil ta'lim olishda ham tabiat haqidagi bilimlar sistemasini shakllantiradi va o'z ichiga quyidagi pedagogik maqsadlarni qamrab oladi:


Ta'limiy: tabiiy fanlarga oid bilimlarni egallash - boshlang'ich tabiat to'g'risidagi tushunchalarni shakllantirishda quyidagi asosiy va maxsus bilimlar sistemasini o'z ichiga oladi:

- tabiiy fanlarni fan sifatida rivojlanishi;
- uning asosiy bo'limlari, usullari va vositalarini bilish va tushunish;

Tarbiyaviy: Tabiat haqidagi umumlashgan bilimlarni berishda, dunyoning yaralishidagi umumiy qonuniyatlarni tushuntirish, insonning tabiatdagi o'rni, uning tabiatga munosabatini umuminsoniy qadriyatlar orqali tushuntirish yo'li bilan o'sib kelayotgan avlodda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish, bilish imkoniyatlarini shakllantirish, ularni mustaqil va mantiqiy fikr yuritishga, ma'lumotlarni va olgan bilimlarini umumlashtira olishga, oddiy mantiqiy fikrlashdan tortib chuqur nazariy tahlillar qilishga o'rgatish.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, mediata'lim asosida ishlab chiqilgan “Natural science 3” elektron o'quv qo'llanmasidan umumiy o'rta ta'lim maktabining 3- sinflarida, balki butun boshlang'ich sinflarda ham foydalanish





mumkin. Darslarda bu dasturiy-pedagogik vositadan foydalanishda asosan quyidagi uch jihatga e'tibor qaratishimiz zarur:

- dasturiy-pedagogik vositadan foydalangan holda namunaviy rejalashtirish;

- dasturiy-pedagogik vosita konkret darslarda foydalanish metodikasi;

- dasturiy-pedagogik vositadan foydalanishning tashkiliy jihatlari.

O'quvchilarning tabiat haqidagi bilimlarini shakllantirishning turli bosqichlarida maqsad va vazifalar ham turlicha bo'ladi. Tabiiy fanlardagi asosiy o'quv dasturlari mazmunidan kelib chiqib, 3-sinfda tabiatni o'rganishda o'quvchilar yulduzlar, Quyosh, sayyoralar, Quyosh sistemasidagi boshqa osmon jismlari, Oy – Yerning tabiiy yo'ldoshi, Yer shari, globus, kun va tun,-yil fasllari kabi minimal tushunchalarni bilishlari kerak.[105;120-b.].

Shunday qilib, boshlang'ich sinfdanoq ta'limiy sifat jihatidan tabiiy fanlarga ilmiy yondashish, jismlar va hodisalarning tabiati to'g'risidagi boshlang'ich tushunchalarni shakllantirishga jiddiy e'tibor qaratishimiz zarur. O'quvchilarda tabiiy fanlarga oid tushunchalarning shakllanishi va rivojlanishi uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. Tabiiy fanlar darslarida odatdagi namoyishlar uchun quyidagi ko'rgazmali qurollar qo'llaniladi: Yer shari globusi, xarita, shamol, havo temperaturasini, namligini o'lchovchi asbob-uskunalar va boshqalar.

"Natural science 3" elektron o'quv qo'llanmasi tarkibiga kiritilgan interfaol modellar, va rasmlar ushbu ko'rgazmali qurollarni to'ldiradi.

Bir qator rivojlangan xorijiy davlatlar ta'lim tizimida tabiiy fanlar (biologiya, geografiya, kimyo, fizika) 1-6-sinflarda Science dasturi asosida o'qitiladi. Endilikda O'zbekiston ta'lim tizimida ham 2021-2022 o'quv yilidan boshlab 1-6-sinflarda tabiiy fanlarni o'zida jamlagan Tabiiy (Science) fanlar joriy etiladi. Tabiiy (Science) fanlar ayni vaqtda o'qitib kelinayotgan 1-2-sinfda "Atrofimizdagi olam", 3-4-sinflarda "Tabiatshunoslik", yuqori sinflarda esa 4 ta alohida fanlar, ya'ni geografiya, biologiya, fizika (6-sinfdan boshlab), kimyo (7-sinfdan boshlab) fanlarini o'zida birlashtiradi. Tabiiy fan (SCIENCE) amalga kiritilishidan oldin xalqaro amaliyot, O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan xususiy va xorijiy maktablar tajribasi o'rganildi. Bir qator rivojlangan xorijiy davlatlar ta'lim tizimida tabiiy fanlar (biologiya, geografiya, kimyo, fizika) 1-6 sinflarda SCIENCE dasturi asosida o'qitildi. Tabiiy fani ayni vaqtda o'qitilib kelinayotgan 1-2-sinfda "Atrofimizdagi olam", 3-4 sinflarda "Tabiatshunoslik", yuqori sinflarda esa 4 ta alohida fanlar, ya'ni geografiya, biologiya, fizika (6-sinfdan boshlab), kimyo (7 sinfdan boshlab) fanlarini o'zida birlashtiradi. Bu






fanni joriy etishdan ko'zlangan maqsad va uning ahamiyati shundan iboratki, fan orqali o'quvchi olamning yaxlit, ajralmas, bir butunligini anglaydi, ilmiy dunyoqarashi shakllanadi, tadqiqotchilik ko'nikmalari, kreativ fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Mazkur fan o'quvchi-yoshlarni kichik yoshdan boshlab tabiiy fanlarni o'qishga qiziqtirish, ularda atrof-olam haqida yaxlit tasavvur paydo qilishga yordam beradi. Bu bilan bola tabiiy fanlar, jumladan fizika va kimyo qiyin emas, aksincha qiziq fanlar ekanligini tushunadi, uni o'rganishga o'zida rag'bat sezadi. Ta'lim tizimida shunday gap bor: "Keraksiz va zerikarli fan bo'lmaydi, balki fanni o'qitishning keraksiz va zerikarli usullari bo'ladi" "Yangi tartibning joriy qilinishi 5 yilgacha muddatni oladi". Tabiiy fan (SCIENCE) bosqichma-bosqich tarzda joriy qilinadi. Birinchi bosqich 2021/22 o'quv yilida 1-2-sinflarda, keyin boshqa sinflarda joriy qilinadi. "Tabiiy fan boshqa fanlarni qisqartirmaydi". Ayni paytda 1-2-sinfda "Atrofimizdagi olam" - 1 soat, 3-4-sinfda tabiatshunoslik - 1 soat, 5-sinfda biologiya - 1 soat, geografiya - 1 soat, 6-sinfda fizika - 2 soat, biologiya - 2 soat, geografiya va iqtisod - 2 soatdan o'qitilib, 1-5-sinflarda jami 12 soatni tashkil qiladi.

Hozirgi takliflarga ko'ra, tabiiy fan 1-sinfda bir soat, 2-4-sinflarda ikki soatdan, 5-6-sinfda esa 3 soatdan, jami 13 soat o'qitilishi tavsiya etilmoqda. Bu - hali taklif, albatta. Soha mutaxassislarining bergan taklif-mulohazalari albatta inobatga olinishi lozim. Tabiiy fanlarni o'qitishda quyidagi xususiyatlarni inobatga olish lozim: Universiallik - insoniyatga zarur bo'lgan bilimni fan ishlab chiqadi. Uni bilish hamma insonga foyda keltiradi va uning tili bir xil.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Norbo'taev X.B. Boshlang'ich sinf tabiatshunoslik darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasi // Zamonaviy ta'lim. – Toshkent, 2016. - № 6. – S. 34 – 39.
2. Narbayev A.B. Mediatexnologiya vositalaridan foydalanish astronomiya o'qitishda samaradorlikni oshirishning muhim omili. //O'zMU xabarlar. - Toshkent, 2018. -B. 268-272.
3. Norbo'taev X., Eshquvvatov Sh. Boshlang'ich sinflarda didaktik o'yinli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi // Zamonaviy ta'lim. – Toshkent, 2015. - № 6. – B. 67 – 68.
4. Rayhon Beruniy. Tarayhalar (Javohirot kitobidan) -T.: Meros,1991. -47
5. Bahromov A.D., Sharipov Sh., Nabieva M. Tabiatshunoslik. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3–sinfi uchun darslik. –T.; Cho'lpon, 2019 y.-126 b.
6. Бекетова О.А. Инновация в образовании: понятие и сущность // Теория и практика образования в современном мире: материалы





Международ. науч. конф. Июль. 2014 г. – Санкт-Петербург, 2014. – СПб.: Сатис, 2014. – С. 1 – 2.

7. Sharipova D., Xodieva D.P., Shirinov M.K. Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi – T.: Barkamol fayz mediya, 2018. – 453 b.

8. Электронный ресурс: <https://ru.wikipedia.org/wiki>

9. Электронный ресурс <https://ru.wikipedia.org/wiki/> Вентцель, Константин Николаевич

10. Электронный ресурс <https://cyberleninka.ru/.../zankova-novye-vozmozhnosti-na-primeremuzy>.

